

ERKIN ZONALARNING TURLARI VA ULARNING GEOGRAFIYASI. ERKIN ZONALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI

Nazarov Didar Maxsat o'g'li

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti Geografiya yo'nalishi talabasi

nazarovdidar7@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20287253>

Annotatsiya: Ushbu maqolada erkin zonalarning turlari va terminologiyasi tushunarli tarzda yoritilib beriladi. Ularning o'ziga xos xususiyatlari va farqlari tomonlari aniq ko'rinishida tahlil qilinadi. Bu turdagi zonalarning dunyo bo'ylab qaysi hududlarda tarqalishi ya'ni geografiyasi haqida ma'lumotlar keltiriladi. Erkin zonalarning afzalliklari va kamchilik tomonlari qisqacha ko'rinishda ochib beriladi.

Kalit so'zlar: erkin zona, erkin zona terminologiyasi, dengiz savdosi, portlar, erkin zona xususiyatlari

Аннотация. В данной статье в доступной форме освещаются виды и терминология свободных зон. Их особенности и различия анализируются в конкретном виде. Приводятся сведения о том, в каких регионах мира распространены эти типы зон, то есть о их географии. Вкратце раскрываются преимущества и недостатки свободных зон.

Ключевые слова: свободная зона, терминология свободной зоны, морская торговля, порты, особенности свободной зоны

Abstract. This article explains the types and terminology of free zones in an understandable way. Their distinctive features and differences are analyzed in a clear form. Information is provided on the distribution of these types of zones across the world, i.e., their geography. The advantages and disadvantages of free zones are briefly disclosed.

Keywords: free zone, free zone terminology, maritime trade, ports, features of the free zone


Erkin zonalar - bu mamlakatning boshqa qismlaridan alohida ajratilgan va mamlakat ichidagi tijorat, moliyaviy va iqtisodiy masalalar bo'yicha huquqiy va ma'muriy qoidalar qo'llanilmaydigan va 3218-sonli Erkin zonalar to'g'risidagi qonun bilan sanoat va tijorat faoliyati uchun kengroq rag'batlantirish choralari belgilangan zonalar. Bu hudud bo'yxonalar tashqarisida hisoblanib, soliq imtiyozlari va QQS tolovlari minimal darajada kamaytirilgan yoki deyarli bo'lmagan tadbirkorlik, biznes va hako'zalar uchun qulayliklari bilan jozibador bo'lgan hududlardir. Bu hududlar odatda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishga yo'naltirilgan hududlar sifatida tanilgan. Buning bilan birgalikda erkin zonalar muayyan davlatning importga qaramligini kamaytiradi va ichki bozorga yo'naltirilib raqabotbordoshlikni kuchaytiradi. Bundan tashqari erkin zonalar mamlakatning texnologik rivojlanishida faol rol o'ynaydi [3].

Erkin zonalarni ajratib olib va farqlashda ko'pchilik shaxslar qiyinchiliklarga duchor bo'ladi. Insonlarning bu tushunchalarni ang'lay olishi va mavjud bilimlarga ega bo'lishi uchun erkin zonalarni quyidagi turlarga ajratishimiz mumkin:



1-rasm. Erkin zonalarining turlari va klaster metodida tasvirlanishi

Yuqoridagi rasmdan ko'rish mumkinki erkin zonalarining 20 dan ortiq turi mavjud. Har bir mamlakatda erkin zonalar tushunchasi turlicha ko'rinishida nomlanadi va tashkil etilgan bo'ladi [5]. O'zbekiston Respublikasida erkin zonalar "erkin iqtisodiy zonalar" tushunchasi orqali amalga oshirilgan. Erkin iqtisodiy zonalar ham o'z navbatida mamlakatimizda agro erkin iqtisodiy zonalar, farmasevtik erkin iqtisodiy zonalar, turistik-rekreatsion erkin iqtisodiy zonalarga ham bo'linadi.



2-rasm. Maxsus erkin iqtisodiy zonalarining yillar davomida sonining o'sishi

Erkin zona tushunchasi dastlab dengiz savdosi orqali vujudga kela boshlagan. Erkin iqtisodiy zona tushunchasi goyoki eski tushuncha ko'rinsada bugun kunning zamonaviy terminologiyasi sifatida aks etmoqda. Longhorn, Marsel, Gibraltar, Gonkong, Singapur, Gamburg kabi jahonning muhim savdo portlarida erkin zona tushunchasi ixtiro sifatida paydo bo'lgan. XX ikkinchi yarmidan keyin zamonaviy erkin iqtisodiy zonalar aeroportlar, dengiz portlari va chegara yo'laklariga bo'ylab tashkillashtirilgan.



2-rasm. Erkin zonalarining dunyo bo'ylab tarqalishi. <https://www.cerayoto.com/serbest-bolge-nedir/>

Global miqyosda qaraydigan bo'lsak, maxsus iqtisodiy zonalar soni butun yer yuzasida ortib bormoqda va ularning soni hozirgi kunda 5,5 mingdan oshgan. Chunki 2018-yilgi ma'lumotlarda 5400 ta mavjudligi statistik manbalarda qayd etilgan va bularning 40 %dan ortig'i erkin zonalariga to'g'ri keladi. Dastlabki erkin zonalarining paydo bo'lishi 1935-yilga borib taqaladi. Erkin zonalar shakllanishiga qarab 2 ta toifaga bo'lingan. Bular erkin savdo zonalar va eksportga ixtisoslashgan zonalar deyishimiz mumkin. Bundan tashqari erkin zonalarining genetikasi 6 ta avlodni o'z ichiga oladi [1]. Yuqoridagi xaritada Sharqiy Osiyo, Yevropa, Shimoliy Amerika, Janubiy-g'arbiy Osiyo va Sharqiy afrika zich joylashganligini bilib olishimiz mutlaqo mumkindir

Erkin zonalar davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga hissa qo'shadi va uning shu yo'nalishda bir qancha xususiyatlar mavjud. Ular quyidagilar:

- Mamlakatning tashqi savdosini rivojlantiradi, xorijiy valyuta tushunlarini orttiradi, eksport va importni qulaylashtiradi va umuman olganda sanoatni jonlantiradi;
- Erkin zonalar aniq chegalangan hududga ega bo'lib, portning hamma yoki ma;lum bir qismini, hattoki butun boshli shaharni qamrab oladi. Erkin zonalar port yoki tranzit yo'llarining yaqinida yaratiladi.
- Erkin zonalar biron bir hududning Ichida bo'lgani qaramay bojxona chegaralaridan, soliqlaridan va majburiyatlaridan yiroqdir
- Erkin zonalar asosan tijorat faoliyatlariga yo'naltirilgan va zichlashgan yerlari hisoblanadi;
- Erkin zonlarda savdogarlar, broker, forwardlar va hakoazarlar o'z faoliyatlarini erkin tarzda boshqarib biladi, korxonalar yoki firmalar qurib daromadlarini oshirishi mumkin;
- Chet el kompaniyalari yoki katta gigant korxonalar erkin zonlarda filiallarni ochishi va investitsiyalarni kiritib, shaxsiy rivojlanishini ta'minlaydi [2].

Geografik jihatdan qarashimiz mumkinki, jahon ko'plab rivojlangan mamlakatlari ko'proq daromad olish va iqtisodiy faollikni kuchaytirish uchun rivojlanayotgan davlatlarga sarmoya kiritadi. Ushbu sarmoyadorlar uchun mos bo'lgan hududlar albatta erkin zonalar hisoblanadi. Aksincha rivojlanayotgan davlatlar xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb qilib, import

maxsulotlarga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi va eksportga chiqadigan mahsulotlar ishlab chiqaradi. Tahlillar shuni bizga bayon qiladi ya'ni har qanday davlat o'z manfaatini ko'zlaydi va bular bir-biriga bog'langan. Xalqaro miqyosda manfaatlar to'qnashgan hudud bu – erkin zonalardir.

Endi mavzunining asosiy qismidan biri bo'lgan erkin iqtisodiy zonalarning afzalliklari va kamchiliklariga nazar tashlash ayni muddodir. Ularni sodda va tushunarli tarzda quyidagicha ifodalash mumkin:

ERKIN ZONALARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	
Afzalliklari	Kamchilik tomonlari
<ul style="list-style-type: none"> • Past bojxona tolovlari • Soliqlarni rag'batlantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi • Boshqaruv qulayliklarini taqdim etadi • Eksport va import qulayliklarini yaratilganligi • Xorijiy investorlar uchun jazibador makon sanaladi 	<ul style="list-style-type: none"> • Chegaralangan bozorga erishishdagi qiyinchiliklarning tug'ilishi • Ish boshlayotgan tadbirkorlar uchun yuksak xarajatlarning muammoga sabab bo'lishi • Mahalliy iqtisodiyot bilan chegaralangan ta'sirlashuvda va aloqadorlikda bo'lishi • Ekologik tartibga solishning sekinligi • Mahalliy korxonalar bilan raqobatning va inqirozga uchrashiga sababchi bo'ladi

4-rasm. Erkin zonalarning afzalliklari va kamchiliklari grafik jadval ko'rinishida [4].

Xulosa qilib aytganda erkin zonalarni ta'rifini berish uchun faqat bitta manbalarga asoslanmaslik darkor. Aslida erkin zonalarga AQSH va yevropa davlatlari adabiyotlari ma'no jihatdan biri-biriga yaqin va anglash, ajratib olish uchun bilimga ega bo'lish lozim. Erkin zonalar 2000 yillik tarixga ega bo'lib o'zining ajabtovur tarixini bosib o'tgan. Erkin zonalar iqtisodiy fanlarda ko'p o'rgailganiga qaramay uning geografik bog'liqligi haligacha ochib berilmagan. Bu esa mavzu yuzasidan aniq geografik tadqiqotlar o'tkazish va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning mavqeini ulug' cho'qqilarga olib chiqishda asosiy rol o'ynaydi. Zero kartografik bilimlar orqali zamonaviy GIS dasturlari asosida tahrirlash o'ta muhim. Umuman olganda ushbu mavzudan ko'zlangan maqsad noaniqlikni kamaytirish va foydalanuvchilar uchun sodda mexanizmga ega bo'lgan resurs manbalarni yaratishdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Omar Sharaf-addeen Alansary, Tareq Al-Ansari. Defining 'free zones': A systematic review of literature. Heliyon Journal, Volume 9, Issue 4, 2023. DOI: 10.1016/j.heliyon.2023.e15250
2. Selin Erdog'an. Serbest Bölgeler: Dünyada ve Türkiye'de 339-340 betlar.
3. Sevil Acar, Derya Gültekin-Karakaş. Dünyada ve Türkiye'de Serbest Bölgeler. Marmara İktisat Dergisi (Marmara Journal of Economics). Volume 1, Issue 1, March 2017, pp. 21-35. ISSN: 2528-8547. DOI: 10.24954/mjecon.2017.1
4. <https://www.cerayoto.com/serbest-bolge-nedir/>

5. https://www.researchgate.net/publication/350106480_Dunyada_Serbest_Bolgeler/citation/download?_tp=eyJjb250ZXh0Ijp7ImZpcnNOUGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIiwicGFnZSI6InB1YmxpY2F0aW9uIn19

